



AKTUAR MOLIIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 07 | pp. 44-48 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING TARMOQ XUSUSIYATLARI VA ULARNING XARAJATLAR HISOBI HAMDA TANNARX SHAKLLANISHIGA TA'SIRI



Jumaniyazov Iskandar Bohodirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliyaviy tahlil kafedrası dotsenti v.v.b., PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada to'qimachilik tarmog'i korxonalarining o'ziga xos ishlab chiqarish xususiyatlari, ularning xarajatlar hisobi tizimiga hamda mahsulot tannarxini shakllantirish jarayoniga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. To'qimachilik sanoatida xomashyo sarfining yuqori ulushi, ishlab chiqarishning ko'p bosqichliligi, yarim tayyor mahsulotlar harakati, eksportga yo'naltirilgan faoliyat va energiya resurslaridan intensiv foydalanish kabi omillar xarajatlarni hisobga olish va tannarxni aniqlash uslubiyaiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini joriy etish tannarxning aniqligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va korxonalarining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: to'qimachilik tarmog'i, xarajatlar hisobi, tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv hisobi, xomashyo xarajatlari, kalkulyatsiya.

Аннотация. В данной статье научно анализируются специфические производственные характеристики текстильных предприятий, их влияние на систему учета затрат и процесс формирования себестоимости продукции. Доказано, что такие факторы, как высокая доля потребления сырья в текстильной промышленности, многоступенчатое производство, перемещение полуфабрикатов, экспортно-ориентированная деятельность и интенсивное использование энергоресурсов, оказывают существенное влияние на методологию учета затрат и определения себестоимости. По результатам исследования, внедрение современных методов управленческого учета способствует повышению точности калькуляции затрат, оптимизации издержек и укреплению конкурентоспособности предприятий.

Ключевые слова: текстильная промышленность, учет затрат, себестоимость, себестоимость продукции, управленческий учет, себестоимость сырья, расчет.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the specific production characteristics of textile enterprises, their impact on the cost accounting system, and the process of determining product costs. It is demonstrated that factors such as the high proportion of raw material consumption in the textile industry, multi-stage production, the movement of semi-finished products, export-oriented activities, and intensive energy use significantly influence cost accounting and cost determination methodology. The study concludes that the implementation of modern management accounting methods contributes to improved cost calculation accuracy, cost optimization, and enhanced enterprise competitiveness.

Keywords: *textile industry, cost accounting, cost, product cost, management accounting, raw material cost, calculation.*

Kirish. O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunday sharoitda korxonalarining moliyaviy natijalarini yaxshilash va xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini ta'minlashda xarajatlar hisobi hamda mahsulot tannarxini to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni yigirish, to'qish, bo'yash, pardozlash va tikuvchilik kabi ketma-ket bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqichda xarajatlarning alohida hisobini yuritish talab etiladi. Shu sababli tarmoqning texnologik va tashkiliy xususiyatlarini hisobga olgan holda xarajatlar hisobini tashkil etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoati korxonalarining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning xarajatlar hisobi hamda tannarx shakllanishiga ta'sirini baholashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxini shakllantirish masalalari iqtisodiyot fanida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni aniq hisoblash va xarajatlarni samarali boshqarish korxona raqobatbardoshligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. To'qimachilik sanoatida esa ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi, ko'p bosqichlilik va xomashyo ulushining yuqoriligi ushbu masalani yanada dolzarb qiladi.

Xarajatlar hisobi nazariyasining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shgan xorijlik iqtisodchi olimlardan biri Ch.T. Horngren hisoblanadi. U xarajatlar hisobi korxona boshqaruvining strategik vositasi ekanligini ta'kidlab, tannarxni shakllantirishda xarajatlarning kelib chiqish manbalari va javobgarlik markazlari bo'yicha hisob yuritish zarurligini asoslab bergan. Xorijlik iqtisodchi olimlar S.M. Datar va M.V. Rajan Ch.T. Horngrenning fikrini quvvatlab, "zamonaviy korxonalarda xarajatlarni boshqarish tizimi nafaqat moliyaviy natijalarni baholash, balki strategik qarorlar qabul qilish uchun ham muhim axborot manbai hisoblanadi" [1].

Xorijlik soha mutaxassislari R.S. Kaplan va R. Cooper tomonidan ishlab chiqilgan Activity-Based Costing (ABC) konsepsiyasi xarajatlar hisobining yangi bosqichini boshlab berdi. Ular "an'anaviy xarajatlarni taqsimlash usullari mahsulot tannarxini noto'g'ri shakllantirishi mumkinligini ta'kidlab, bilvosita xarajatlarni faoliyat turlari orqali taqsimlash metodikasi"ni taklif qilganlar [2]. Mazkur yondashuv ayniqsa energiya va umumishlab chiqarish xarajatlari ulushi yuqori bo'lgan to'qimachilik korxonalari uchun muhim ahamiyatga ega.

To'qimachilik sanoatining o'ziga xos jihatlari bo'yicha qator xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tadqiqotlar olib borilgan. Textile Exchange (2024) hisobotida to'qimachilik mahsulotlari tannarxida xomashyo xarajatlari eng katta ulushni tashkil etishi qayd etilgan. Hisobotga ko'ra, "paxta tolasi va boshqa tabiiy tolalarning narxlaridagi o'zgarishlar mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir ko'rsatadi" [3].

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan B.A. Xasanov, A.X. Pardayev va boshqalar boshqaruv hisobi tizimining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganib, xarajatlarni javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish usulining afzalliklarini asoslab berganlar. Professor B.A. Xasanovning fikriga ko'ra, "ishlab chiqarish korxonalarida xarajatlarni nazorat qilish va tannarxni pasaytirish uchun boshqaruv hisobi tizimi samarali ishlashi zarur" [4].

Mamlakatimiz soha mutaxassislari A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov va A.T. Ibrohimov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda tannarx kalkulyatsiyasi usullarining O'zbekiston korxonalarida qo'llanish amaliyoti tahlil qilingan. Mualliflar "ishlab chiqarish korxonalarida normativ usul va standart-kost tizimlaridan foydalanish xarajatlar nazoratini kuchaytirishini" [5] qayd etadilar.

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xarajatlar hisobi va tannarx shakllanishi masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, to'qimachilik sanoatining texnologik xususiyatlari bilan bog'liq xarajatlar hisobi muammolari hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, yarim tayyor mahsulotlar harakati, energiya xarajatlarini taqsimlash, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini joriy etish masalalari qo'shimcha ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Mazkur maqolada aynan ushbu jihatlar to'qimachilik korxonalarini faoliyati misolida chuqurroq tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik umumlashtirish hamda ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xarajatlar hisobi va boshqaruv hisobi bo'yicha mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari va sohaviy statistik ma'lumotlar o'rganildi. Tadqiqotning nazariy asosini xarajatlar hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi bo'yicha ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tahlillar to'qimachilik sanoatining texnologik xususiyatlari va ishlab chiqarish xarajatlari tarkibi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, to'qimachilik korxonalarini quyidagi xususiyatlari bilan boshqa ishlab chiqarish tarmoqlaridan farqlanadi:

- *xomashyo xarajatlarining yuqori ulushi.* To'qimachilik mahsulotlari tannarxida paxta tolasi, ip-kalava, bo'yoqlar va kimyoviy moddalar xarajatlari asosiy o'rinni egallaydi. Amaliyotda moddiy xarajatlar umumiy ishlab chiqarish tannarxining 55-70 foizigacha qismini tashkil etishi mumkin. Mazkur holat xomashyo sarfi me'yorlarini aniq belgilash va ularning harakatini qat'iy nazorat qilish zaruratini yuzaga keltiradi;

- *ishlab chiqarishning ko'p bosqichlilik.* To'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish quyidagi ketma-ket jarayonlarni qamrab oladi: paxta tolasi tayyorlash; yigirish; to'qish; bo'yash; pardozlash; tikuvchilik. Har bir bosqichda yarim tayyor mahsulot hosil bo'ladi. Natijada xarajatlarni jarayonlar bo'yicha hisobga olish va taqsimlash zarurati yuzaga keladi;

- *yarim tayyor mahsulotlar ulushining yuqoriligi.* Korxonalarda ip-kalava, gazlama va bo'yalgan matolar keyingi ishlab chiqarish bosqichlari uchun yarim tayyor mahsulot sifatida xizmat qiladi. Bu esa tannarxni hisoblashda jarayonli (process costing) usuldan foydalanishni talab qiladi;

- *energiya resurslariga yuqori ehtiyoj*. Yigirish va bo'yash sexlarida elektr energiyasi, bug' va suv resurslari katta hajmda sarflanadi. Energiya xarajatlari ishlab chiqarish tannarxining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi;

- *eksportga yo'naltirilgan faoliyat*. To'qimachilik korxonalarining aksariyati eksport bilan shug'ullanadi. Shu sababli mahsulot tannarxini xalqaro standartlar asosida aniqlash korxonalarning eksport narxlarini shakllantirishida muhim ahamiyatga ega.

Tarmoq xususiyatlarining xarajatlar hisobiga ta'siri. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, to'qimachilik korxonalarida xarajatlar hisobi quyidagi yo'nalishlarda o'ziga xoslik kasb etadi:

moddiy xarajatlar hisobi. Asosiy e'tibor xomashyo va materiallar harakatini nazorat qilishga qaratiladi. Materiallar sarfini normativ usulda hisobga olish tannarx aniqligini oshiradi;

jarayonlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish. Ishlab chiqarishning uzluksiz va bosqichma-bosqich xarakteri sababli xarajatlar alohida sexlar hamda texnologik jarayonlar kesimida hisobga olinadi;

bilvosita xarajatlarni taqsimlash. Energiya, amortizatsiya va umumishlab chiqarish xarajatlari mahsulot turlari o'rtasida taqsimlanadi. Taqsimlash bazasining noto'g'ri tanlanishi tannarxning buzilishiga olib kelishi mumkin;

chiqindilar va yo'qotishlar hisobi. Paxta tolasi va gazlama ishlab chiqarishda texnologik chiqindilar yuzaga keladi. Ularning hisobini yuritish tannarxni to'g'ri aniqlash imkonini beradi.

Tarmoq xususiyatlarining tannarx shakllanishiga ta'siri. To'qimachilik mahsulotlari tannarxi quyidagi elementlar asosida shakllanadi (1-jadval):

1-jadval

To'qimachilik xarajatlari elementlari va ularning tannarxdagi ulushi

Xarajat elementlari	Tannarxdagi ulushi (%)
Moddiy xarajatlar	55-70
Mehnat xarajatlari	10-20
Ijtimoiy soliq	2-5
Energiya xarajatlari	8-15
Amortizatsiya	5-10
Boshqa xarajatlar	3-8

*Manba: Muallif ishlanmasi

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, tannarxning asosiy qismi moddiy xarajatlardan iborat bo'lib, xomashyo narxlaridagi o'zgarishlar mahsulot tannarxiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, ishlab chiqarishning ko'p bosqichlilik sababli yarim tayyor mahsulot tannarxini aniqlash yakuniy mahsulot tannarxining aniqligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari to'qimachilik sanoatida xarajatlar hisobi tizimini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. An'anaviy kalkulyatsiya usullari barcha hollarda mahsulot tannarxini aniq aks ettira olmaydi. Shu sababli zamonaviy boshqaruv hisobi vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, faoliyatga asoslangan

xarajatlarni hisoblash (Activity-Based Costing, ABC) tizimini qo'llash bilvosita xarajatlarni mahsulotlarga aniqroq taqsimlash imkonini beradi. Lean Accounting va standart-kost usullaridan foydalanish esa resurslardan samarali foydalanish hamda ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, korxona resurslarini rejalashtirish (Enterprise Resource Planning, ERP) tizimlari va raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish xarajatlarini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa tannarxni boshqarish samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarishning ko'p bosqichliligi, xomashyo xarajatlarining yuqori ulushi va yarim tayyor mahsulotlar harakatining mavjudligi bilan tavsiflanadi;
- mazkur xususiyatlar xarajatlar hisobi tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, xarajatlarni jarayonlar bo'yicha hisobga olish zaruratini yuzaga keltiradi;
- mahsulot tannarxining asosiy qismini moddiy xarajatlar tashkil etadi, shu sababli materiallar sarfini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega;
- zamonaviy boshqaruv hisobi usullarini qo'llash tannarx aniqligini oshirish va korxona rentabelligini yaxshilash imkonini beradi.
- to'qimachilik korxonalarida raqamli texnologiyalar va ERP tizimlarini joriy etish xarajatlarni samarali boshqarishning istiqbolli yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Datar S.M., Rajan M.V. *Horngrén's Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. 16th Edition. Pearson Education, 2018.
2. https://api.pageplace.de/preview/DT0400.9781292211619_A30123449/preview-9781292211619_A30123449.pdf
3. Kaplan R.S., Cooper R. *Cost and Effect: Using Integrated Cost Systems to Drive Profitability and Performance*. Harvard Business School Press, 1998. 357 p.
4. Textile Exchange Certification Fee Structure. <https://Textileexchange.org>.
5. Б.А.Хасанов., А.А.Хашимов. Бoшқарув ҳисоби. Дарслик. - Тошкент: «Чўлпон» номидаги нашриёти НМИУ, 2013. – 312 б.
6. Moliyaviy va boshqaruv tahlili / Darslik: A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – 3- qayta ishlangan va to'ldirilgan nashri. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. – 600 b.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

